

RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY
AHAMIYATI**Turopova Nigora Xolmurod qizi**

Termez state university

nturopova@tersu.uz**Ziyodulla Xushboq o'g'li Norbekov**

Termiz Davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10927426>

Annotatsiya: ushbu tezisda raqamli iqtisodiyotining amaliy ahamiyati va jihatlari, va birinchi navbatda insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshira olishi va bu uning asosiy foydasi ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, taraqqiyot, tizim, internet iqtisodiyoti, CRM, Fidbek, budjet taqsimoti.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi".¹

Raqamli iqtisodiyot – raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Birinchi marta 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" terminini amaliyotga kiritgan bo'lsa, hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda.²

Shuningdek raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish, ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Bu tizimning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi
- korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari esa:

1. To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejraladi).
2. Tovarlarni va xizmatlarni haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.

3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.
4. Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyotning amaliy ahamiyati va jihatlari, bu birinchi navbatda, insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir.

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot korrupsiya va “qora iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliği yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada “iflos pullarni” yuvish, mablag'larni o'g'irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yoki yashirib ko'rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag'lar oqimini oshiradi, soliqlar o'z vaqtida va to'g'ri to'lanadi, budjet taqsimoti ochiq bo'ladi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar o'g'irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq yetib boradi va hokazo.

Uchinchidan, davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo'nalishlar ochib beradi. “Raqamli texnologiyalar” tomon burilishga butun jahon internet tarmog'i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo'ldi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda bu tizimdan foydalanuvchilar oziqovqat, turli parfumeriya va zamonaviy kiyim-kechak mahsulotlariga buyurtma berish uchun Telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar. Shuningdek, turli internet do'konlar, elektron to'lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqarolarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishonaptilar. Faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirmoqdalar, o'rtacha xarid hajmini oshirishga esa unchalik tayyor emaslar. Endigi masala o'rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operatsiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot deganda raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Bunga elektron tijorat, raqamli marketing, onlayn to'lov tizimlari va bulutli hisoblash va boshqalar kiradi. Raqamli iqtisodiyot so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanib, korxonalarning ishlash uslubini o'zgartirib, samaradorlik va mahsuldorlikni oshirdi. Shuningdek, u yangi ish o'rinlarini yaratdi va iqtisodiy o'sishni ta'minlash salohiyatiga ega. Biroq, ma'lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik kabi masalalar raqamli iqtisodiyotda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot bugungi global bozorda innovatsiyalar va raqobatbardoshlikning asosiy omili sifatida qaralmoqda.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Kelly K. New Rules for the New Economy: 10 radical strategies for a connected world / K. Kelly. – New York: Viking, 1998.
3. Sultonov, X. G. (2022). Effectiveness of attracting investments in improving the ecological condition of irrigated lands. Экономика и социум, (4-1 (95)), 56-60.

4. Norqobilov N. The role of foreign investment in the development of the economy of Kashkadarya region //Business Expert. – 2020. – T. 1. – C. 145.
5. Abdugabbarovna D. L. et al. Peculiarities of small business and private entrepreneurship development //Open access repository. – 2024. – T. 10. – №. 1. – C. 50-53.
6. Буранова Л. В. и др. Повышение эффективности управления кредитными ресурсами предприятия //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 329-333.
7. Turoпова N. O 'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o 'ziga xos xususiyatlari. – 2023.
8. Буранова Л. В. и др. Зарубежный опыт ипотечного жилищного кредитования //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 437-345.
9. Solijonovna S. R. Export-oriented localization as a key factor in import substitution //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – T. 5. – C. 36-39.
10. Allayor o'g'li X. R. Hududning eksport salohiyatini statistik tadqiq qilish va ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida) //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 20. – C. 753-755.
11. Eshpulotovich E. A. O 'quvchilar ongida tadbirkorlikni shakllantirishda iqtisodiy tarbiyaning o 'rni //Journal of Universal Science Research. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 76-81.
12. Ziyodullaev S. M. Commercial banking investment attractive legislation normative-legal basis //Innovative development in the global science. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 10-17.
13. Hojiqulova F. et al. Improving the tax system in our countrytraining issues //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 378-382.
14. G'aybullayevich X. A. Bozor munosabatlarning rivojlanish sharoitida hududiy ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni boshqarish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 294-298.
15. Muhammadiyevich O. S. Main problems of population employment and ways to solve them //American Journal of Science on Integration and Human Development. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 10-13.
16. Khurramov E. X. Role of innovation in increasing efficiency of production of agricultural products in forestry //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – C. 518-521.
17. Mukhammadiyevich O. S. Experiences in the study and analysis of population employment in foreign countries //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – T. 10. – №. 12.
18. G'aybullayevich X. A. Iqtisodiy tarmoqlar rivojlanishida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ahamiyati: Crossref //Iqro. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 68-71.
19. Ziyodullaev S. M. Descriptive indicators of the level of income of banks'assets // "Online-Conferences" Platform. – 2023. – C. 229-233.
20. Allayor o'g'li X. R. Globallashuv sharoitida hududning eksport salohiyatini yanada takomillashtirish yo'nalishlari //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 799-803.
21. Sobitova R. S. Scientific and theoretical bases of localization of industrial production //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – C. 401-406.

22. Ergashevich A. A., Abdugabbarovna D. L. Kichik biznes subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi va Ozbekistondagi investitsion jarayonlar.
23. Norqobilov N., Abdullayev J. Specific features of solving the housing problem in our country in the context of economic reforms //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 2. – C. 21-23.

